

TURLI YOSH BOSQICHLARIDA TARBIYA XUSUSIYATLARI

Komiljanova Hilolaxon Nazirjon qizi

Namangan davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti
pedagogika - psixologiya yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishi, shuningdek, rivojlanish jarayoning psixologiya va pedagogika uchun zarur boʻlgan xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi. Bundan tashqari turli yosh davrida xarakter xususiyatlarini shakllanishining psixologik xususiyatlarini oʻrganish masalasi haqida fikr bildirilgan.

Kalit soʻzlar: Tarbiya, yosh davrlari, oʻsmirlik, oʻspirinlik, yosh xususiyatlari, intizom, gigiyenik tarbiya, yetakchi faoliyat, oʻz oʻzini tarbiyalash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о развитии человека, а также о характеристиках процесса развития, необходимых для психологии и педагогики. Кроме того, было высказано мнение о проблеме изучения психологических особенностей формирования черт характера в разном возрасте.

Ключевые слова: Воспитание, возрастные периоды, подростковый возраст, подростковый возраст, возрастные особенности, дисциплина, гигиеническое воспитание, ведущая деятельность, самовоспитание.

ABSTRACT

This article talks about the development of a person, as well as the characteristics of the development process that are necessary for psychology and pedagogy. In addition, an opinion was expressed about the issue of studying the psychological characteristics of the formation of character traits at different ages.

Key words: Education, age periods, adolescence, adolescence, age characteristics, discipline, hygienic education, leading activity, self-education.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqiyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

SH.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga berilayotgan jiddiy e'tibor ertangi kun-kelajagimizga qaratilayotgan yuksak maqsadimizning na'munasidir. Bugungi kunda zamona zaylining turli tarbiyaviy ta'sirga ega shiddatli o'zgarishlari yosh-avlod kamoloti yo'lida yanada yuksakroq mas'uliyat va yangicha talablarni qo'yib bormoqda. Shu o'rinda, O'zbekistonning yosh-avlodga samarali ta'lim-tarbiya berishda xalqaro hamjamiyat ichida yuqori e'tirof etib kelinayotganligi katta yutuqlarimizdandir.

Tarbiya – ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davirdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bolishi uchun avvalo, tarbiyalanishi zarur.[1]. Tarbiya uzliksiz jarayon bo'lib, inson tug'ilgandan to umrining ohirigacha davom etadi.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda yuksak darajadagi manaviyat, axloq odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof muhitiga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bolamiz. Albatta ham jismonan, ham aqlan rivojlanish yosh bilan chambarchas bog'liqligi qadimgi davrlarda ham tushunilgan edi. Rivojlanish jarayonini boshqarish uchun olimlar uzoq vaqt davomida inson hayotining muhim ma'lumotlarini o'z ichiga olgan davrlarni tasniflashga urinishgan. Taraqqiyotni yosh davrlariga bo'lishda o'ziga xos klassifikatsiyalar bor. Misol tariqasida D.B.Elkonin, E.Erikson, Ananov, L.S.Vigotskiy va boshqa birqancha olimlarning izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. Quyida D.B.Elkoninning davrlashtirish chizmasi bilan tanishamiz.

Eralar	Davrlar	Xronologik chegaralar	Yetakchi faoliyat ko'rinishi	Faoliyat turi	Davrga xos bo'lgan rivojlanish
Ilk bolalik	Go'daklik	0 – 1 yosh	Bevosita emotsional muloqot	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Ilk bolalik	1 – 3 yosh	Predmetli harakatli faoliyat	II	Intellektual bilish sohasi
Bolalik	Maktabgacha tarbiya yoshi	3 – 7 yosh	Rolli o'yin	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Kichik maktab yoshi	7 – 10 yosh	O'qish	II	Intellektual bilish sohasi
O'smirlilik	O'smirlilik	11 – 15 yosh	Tengdoshlar bilan intim(jinsiy) shaxsiy muloqot	I	Motivatsion bilish sohasi
	Ilk o'spirinlik	15 – 17 yosh	O'quv-kasbiy	II	Intellektual bilish sohasi

Demak bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari ekan, ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda shaxs rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarini bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham , psixik taraqqiy etishi ham turliyosh davrlarida turlich bo'ladi. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.[2]

Bolada shaxs xislatlari uch yoshda namoyon bo'la boshlaydi. Bu esa uni uch yoshdan boshlab tarbiyalash zarurligini bildirmaydi. Bolani hayotining birinchi oylaridan boshlab tarbiyalash zarur, faqat uning tashqi ko'rinishlari maktabgacha yosh davrining boshida namoyon bo'ladi. Ilk bolalik davrida berilgan tarbiya butun bolalik davrida namoyon bo'ladi.

Tarbiya ona bilan bolaning muloqotidan boshlanadi, bu esa bolaning keyingi shaxsiy rivojlanishini belgilab beradi. Zamonaviy psixologiyadagi so'nggi tadqiqotlarda aniqlanishicha, onadan bolaga yoki chaqaloqlik davrida onaning o'rnini bosuvchi shaxsdan insoniy emotsional o'zaro munosabatlar bilan bog'liq ko'pchilik sifatlar o'tadi. Ilk bolalik davrining o'ziga xos bir necha xususiyatlari quyidagilardir:

✓ Bola ikki yoshga to'lganda muhim shaxs xislati hisoblangan va keyingi hayoti davomida butun umr saqlanib qoladigan - insonlarga bog'lanib qolish xislati shakllanadi.

❖ Bolada kimgadir simpatiya paydo bo'ladi, ana shu yoqtirgan insonning oldida ko'proq bo'lishga harakat qiladi, unga ko'proq yordam so'rab murojaat qiladi.

❖ Bola bog'lanib qolgan shaxs boshqalarga nisbatan ko'proq unga kuchli tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi mumkin.

➤ Ilk bolalik davrida bolada axloqiy ongni emas, balki axloqiy hislarni tarbiyalash haqida so'z yuritish mumkin.

Bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalari bilan bir qancha xorij olimlari shug'ullanishgan. Ulardan J.Piaje, L.Kolbergning ta'kidlashicha, bolalar maktabga o'qishga borguncha axloqiy ong darajalari konvensial axloqqacha bo'lgan davrda bo'ladi. Ushbu axloq turi shu bilan tavsiflanadiki, kattalar bola uchun axloqiy fikrlar manbasi va axloqiy darajada taqlid qilish namunasi hisoblanadi. Lekin Piaje va Kolberg ishlarida ham qachon va qanday qilib bolani axloqiy tarbiyalash jarayonini boshlash kerakligi haqida tavsiyalar keltirilmagan.

•Ilk bolalik davrida axloqiy tarbiya bilan bir qatorda **intizomni, jismoniy va gigiyenik** tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

4. Tartib intizomni tarbiyalash bolada o'z xohish, istaklarini boshqarish, vaziyatli motivatsion ehtiyojlarni jiddiy muhim maqsadlarga erishishga bo'ysundirishni nazarda tutadi.

5. Ilk bolalik davrida jismoniy tarbiya nafaqat sog'liqni mustahkamlash, bolalarning kuchi va chidamliligini shakllantirish, balki intellektual rivojlanishi uchun ham zarurdir.

6. Shuningdek, ilk bolalik davri elementar gigiyenik malakalarning shakllanishi uchun senzitiv-davr hisoblanadi. Elementar gigiyenik malakalarni shakllantirish bolani intizomga o'rgatadi, bu esa unda boshqa ijobiy shaxs xislatlari, jumladan saranjom-sarishtalik, batartiblikka o'rgatadi.

Maktabgacha yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu bois, u katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O'yinning tarbiyaviy funksiyalaridan biri shundan iboratki, u bolaning turli ehtiyojlarini qondirish va uning motivatsion sohasini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.[3]

O'qish faoliyatida bola nafaqat o'rganadi, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaydi, balki tarbiyalanadi ham, ya'ni ma'lum shaxs xislatlari layoqatlar, qobiliyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, xarakter xislatlari ham shakllanadi. Kichik maktab yoshining oxiriga kelib bolada muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish ehtiyoji shakllanadi. Boladagi muvaffaqiyatga erishish intilishini to'g'ri tarbiyalash ko'proq kattalar va bolalarning muloqot uslubiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'qish davrida muvaffaqiyatsizlikdan qochadigan va aksincha muvaffaqiyatga intilishga harakat qiladigan o'quvchilarning onalari farzandlariga turlicha munosabatda bo'lishi aniqlandi:

➤ Farzandlarining yutuqlarini baholashda individual normalarga yoki erishilgan natijalarga emas, o'rtacha ijtimoiy normalarga mosligi e'tiborga olingan. Ular uchun farzandlarining yutuqlari shu yoshdagi boshqa bolalarning yutuqlariga mosligi muhim.

➤ Bunday onalar farzandlarining xohishlarini kamroq e'tiborga olishadi, uy vazifalarini bajarish jarayonini qattiq nazorat qilishadi, bolani mustaqil ishlashga yoki mustaqil qaror qabul qilishga undashmaydi. Bolaga yordam ham maslahatlar tarzida emas, balki uning faoliyatiga bevosita aralashish, bolaga o'z fikrini o'tkazish tarzida amalga oshiriladi,

➤ Bunday onalar ko'pincha farzandlarida qobiliyatlar yo'qligidan noliydi. Nafaqat qobiliyat, balki intilishning yetishmasligida ham farzandlarini ayblaydilar, farzandlarining muvaffaqiyatlarini oson topshiriqlarni bajarish sifatida baholaydilar.

➤ Bunday onalar farzandlarining muvaffaqiyatlari uchun kamdan kam maqtaydi. Farzandlarining muvaffaqiyatsizligi uchun ko‘proq koyib, qoniqmaslik hissini namoyon etishadi.

O‘smirlik davri bilan bog‘liq bo‘lgan yorqin jihatlardan biri – bu o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan kuchli intilishdir. O‘z-o‘zini tarbiyalashning faol kechishi aynan shu yoshdan boshlanib, odatda u yoki bu shaklda insonning butun umri bo‘yi davom etadi. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini tarbiyalash haqida gap ketganda, shuni nazarda tutish lozimki, bola 12-13 yoshga yetgandan so‘ng birinchi marotaba o‘zining aqliy shaxsiy qobiliyatlarining imkoniyati haqida o‘ylab qoladi va ularni rivojlantirish uchun ongli ravishda maqsad sari intiladi. O‘smirlarlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko‘pchilik o‘smirlar boshqalardan yomonroq bo‘lishni hohlamaydilar va o‘z muhitida ko‘zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar.

Ilk o‘spirinlik yoshida inson hayot yo‘lini o‘zi tanlaydigandek tuyuladi, lekin uning kasb tanlashiga tarbiya, muhit va boshqalar ham ta’sir qiladi.

O‘spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakillanadi.[4]

Shaxs rivojlanishida uning psixologik xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ma’lumki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta’lim va tarbiya berib bo‘lmaydi. Bolaning har bir yoshi o‘z qiyinchiliklariga ega bo‘ladi va o‘ziga nisbatan maxsus munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo‘lishning sharti o‘quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Bu esa o‘quvchining psixik dunyosidan yaxshi xabardor bolishni, psixologik jihatdan kuzatishni to‘g‘ri tashkil qila olishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Homidov. Pedagogika Tarixi. T: G‘.G‘ulomov nomidagi nashriyot – manbaa ijodiy uyi, 2004-y.
2. Otamuratov, R.U.(2022). O‘smirlardagi kasbiy o‘zligini anglashdagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIST), (Maxsusson 1), 49-54.
3. Немов Р.С. Психология. Книга 2. Психология образования. -М. ВЛАДОС, 2003. С.436.
4. Джуманов, Ш.З. (2018). Бўлажак ўқитувчининг шахс бўлиб шаклланишида коммуникатив қобилиятнинг моҳияти. FarDU–ilmiy xabarlar.–Фарғона, 5, 113-116.